



O'ZBEKISTONDA MAHALLANING IJTIMOIIY HIMOYA TIZIMIDAGI TARIXIY ROLI

Z.D.Begbotayev

Millat Umidi Universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekistonda mahalla institutining tarixiy rivojlanishi va ijtimoiy himoya tizimidagi roli keng tahlil qilinadi. Mahalla nafaqat yashash joyi sifatida, balki xalqni birlashtiruvchi, mehr-oqibat va birdamlik timsoli bo'lgan muhim ijtimoiy institut sifatida shakllangan. Tarixiy manbalarda mahalla oqsoqol, oqila ayollar va yoshlar yetakchilari orqali aholi muammolarini hal qilish, tinchlik va hamjihatlikni ta'minlash bilan shug'ullangan. Mustaqillik davrida mahalla tizimi modernizatsiyalashgan, aholining ehtiyojmand qatlamiga bevosita yordam ko'rsatishda markaziy o'rin egalladi. Maqolada mahalla tizimining zamonaviy tashabbuslari, masalan, "Ayollar daftari",*

"Yoshlar daftari", "Temir daftar" kabi loyihalar orqali ijtimoiy himoya tizimida qanday samarali rol o'ynashi yoritiladi. Shuningdek, Yangi O'zbekiston sharoitida mahalla davlat va jamiyat o'rtasidagi ko'priq vazifasini bajarayotgani, ijtimoiy barqarorlik va xalq farovonligidagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *mahalla, ijtimoiy himoya, tarixiy rol, xalq qadriyatlari, hamjihatlik, insonparvarlik, ehtiyojmand oilalar, mahalla tizimi, Yangi O'zbekiston, ijtimoiy barqarorlik, davlat va xalq birdamligi.*

Аннотация: *В данной статье подробно анализируется историческое развитие махалли в Узбекистане и её ключевая роль в системе социальной защиты. Махалля служила не только местом проживания, но и объединяла людей, поддерживала гуманизм и взаимопомощь. Исторически махалля через старейшин, опытных женщин и молодежь решала проблемы населения, обеспечивала спокойствие и единство общества. В период*



независимости махалля модернизировалась и стала центром оказания поддержки нуждающимся слоям населения.

Статья рассматривает современные инициативы махалли, такие как «Женский реестр», «Реестр молодежи» и «Железный реестр», которые повышают эффективность системы социальной защиты. Также раскрывается роль махалли в обеспечении социального равновесия и благосостояния населения в условиях Нового Узбекистана.

Ключевые слова: махалля, социальная защита, историческая роль, народные ценности, единство, гуманизм, нуждающиеся семьи, система махалли, Новый Узбекистан, социальная стабильность, единство государства и народа.

Abstract: This article provides a detailed analysis of the historical development of the mahalla in Uzbekistan and its pivotal role in the social protection system. The mahalla has historically been more than a residential unit; it has united people, fostering humanism, solidarity, and mutual support.

Through elders, experienced women, and youth leaders, the mahalla historically addressed social problems, maintained community peace, and strengthened social cohesion. Following independence, the mahalla system was modernized and became central in providing assistance to needy population groups. The article also examines contemporary mahalla initiatives, such as the “Women’s Register,” “Youth Register,” and “Iron Register,” which enhance the efficiency of social protection. Furthermore, it highlights the role of the mahalla as a bridge between the state and society, contributing to social stability and public welfare in New Uzbekistan.

Keywords: mahalla, social protection, historical role, national values, unity, humanism, needy families, mahalla system, New Uzbekistan, social stability, state and people’s solidarity.

Kirish

Mahalla — o‘zbek xalqining eng qadimiy va barqaror ijtimoiy jamoasi bo‘lib, u nafaqat yashash joyi, balki jamiyatning ijtimoiy birdamligini ta’minlovchi



asosiy bo'g'in sifatida shakllangan. Tarixiy manbalarda mahalla oqsoqoli, oqila ayollar va yoshlar yetakchilari orqali aholining muammolarini hal qilish, tinchlikni saqlash va aholini birlashtirish bilan shug'ullangani qayd etilgan.

Mahalla butun jamiyatning barqarorligi, ijtimoiy ishonch va bir-birini qo'llab-quvvatlash tamoyillarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynagan. Shuning uchun nimayki muamo bolsa u aval mahalada barham topishga harakat qilinadi. Hozirgi kunda juda kop ajirimlar oilalar parchalanishi ni oldini olgan holda mahalaga juda ko'p vakolatlar berilgan.

Mahallaning tarixiy rivoji va ijtimoiy himoyadagi roli

Mahalla tizimi qadimdan mavjud bo'lib, u aholining barcha qatlamlariga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Oqsoqollar va mahalla faollari yordamida:

- Oilalarning kundalik muammolari hal qilinardi,
- Nogiron va yolg'iz keksalarga yordam ko'rsatilardi,
- Jamiyatda tinchlik va hamjihatlik mustahkamlanardi,
- Yoshlar va ayollar tarbiyasi bilan shug'ullanilar edi.

Shunday qilib, mahalla nafaqat yashash joyi, balki xalqning ijtimoiy himoya tizimidagi eng yaqin va ishonchli bo'g'in bo'lgan.

Mustaqillik yillarida mahalla tizimi
1991-yildan so'ng mahalla tizimi modernizatsiyalashdi:

- Har bir mahalla raisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli va profilaktika inspektori aholining muammolarini joyida hal qilishga kirishdi.
- “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” va “Temir daftar” kabi tashabbuslar aholining haqiqiy ehtiyojini aniqlash va ularni qo'llab-quvvatlashda samarali vosita bo'ldi.
- Mahalla ijtimoiy himoya tizimining yuragi sifatida xizmat qila boshladi, nogironligi bo'lgan shaxslar, yolg'iz keksalar, kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatladi.

Mahalla va Yangi O'zbekiston

Yangi O'zbekiston sharoitida mahalla endilikda faqat muammolarni hal qiluvchi emas, balki jamiyat taraqqiyotining poydevori sifatida rivojlanmoqda:



- Tadbirkorlikni rivojlantirish,
- Yoshlarni kasbga o'qitish,
- Madaniy-ma'naviy muhitni mustahkamlash.

Mahalla davlat va jamiyat o'rtasidagi masofani qisqartiradi, ijtimoiy barqarorlik va xalq farovonligida hal qiluvchi o'rin egallaydi.

Xulosa

Mahalla — o'zbek xalqining ijtimoiy birdamlik modeli va insonparvarlik maktabi hisoblanadi. Bugungi kunda har bir mahalla:

- Jamiyatni birlashtiradi,
- Aholining farovonligini ta'minlaydi,
- Davlat va xalq o'rtasidagi ishonch ko'prigi bo'lib xizmat qiladi.

Mahalla tizimi tarixiy ildizlardan kelib chiqib, zamonaviy davlat boshqaruvi bilan uyg'unlashmoqda va Yangi O'zbekiston taraqqiyotida poydevor vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Stat.uz
3. Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. Toshkent, 1992.
4. "O'zbekiston tarixi" (darslik – Oliy o'quv yurtlari uchun), Toshkent, 2020.
5. Qodirov A., Axmedov B. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti. Toshkent, 2019.